

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI
NOMLI III ILMIY ONLAYN KONFERENSIYA**

**MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIM TIZIMIDA SIFAT
SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING INNOVATSION
YONDASHUVI**

Davranova Gulbahor Numondjonovna

Osiyo xalqaro universiteti "Pedagogika va psixologiya" kafedrasi o'qituvchisi

Iskandarova Mohichehra Abdulmannan qizi

Osiyo xalqaro universiteti Maktabgacha ta'lism yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Bu maqolada maktabgacha va boshlang'ich ta'lism tizimida olib borilayotgan o'zgarishlar, islohotlar va innovatsion yondashuvlar haqida aytib o'tilgan. Bundan tashqari, ta'linda tarbiyachi, muallimlarning o'rni va chet el ta'lism tizimi tajribasi haqidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Maktabgacha ta'lism, boshlang'ich ta'lism, innovatsiya, rivojlanish, "Ilk qadam", ta'lism, tarbiya, Makarenko, "Ta'lism to'g'risidagi qonun", kompetensiya.

Bugungi kunda har qanday davlatning asosiy tendensiyasida innovatsion faoliyat yuqori o'rirlarni egallamoqda. Kelgisida barkamol yosh avlodni tarbiyalash, o'sib borayotgan avlodni sog'lom va har tomonlama yetuk shaxs sifatida shakllantirish maqsadida ta'lism - tarbiyaga juda katta e'tibor berilmoqda. Xususan, uzlucksiz ta'lismning 1-bosqichi bo'lmish maktabgacha ta'lismning tez sur'atlarda o'sib borishi ta'lism sifatini yanada takomillashtirib har bir yosh avlodning sifatli, shart - sharoitlarga ega maktabgacha ta'lidan teng huquqda foydalanishi ta'lism tizimining yanada rivojlanishida turki sifatida xizmat qilyapti desak, mubolag'a bo'lmaydi. Maktabgacha ta'linda olib borilayotgan o'zga-rishlardan yana biri shuki, 2024-yilda maktabgacha ta'lism qamrovi 65%ga 2025-yil oxirida esa 75% ga yetkazilishi, 600 mlrd so'm subsidiya berilib, 2000 ta xususiy bog'cha ochilishi ko'zda tutilgan. Bu esa bola tarbiyasi uning kelajakda qanday shaxs sifatida yetishi, yoshlarga berilayotgan e'tibor, shart-sharoitlarning barchasi ta'lism tarbiyaning yosh avlod uchun qanchalik katta ahamiyat kasb etishidan dalolat beradi. Albatta, maktabgacha ta'lism bolalarни har tomonlama bilimli, zukko, ham ma'nan, ham jismonan sog'lom qilib tarbiyalaydi. Bunda esa asosiy o'rinni, albatta, tarbiyachi egallaydi.

Shu o'rinda buyuk faylasuf A.S.Makarenko ta'kidlaganidek "Tarbiyachi tashkil etishni, yurishni, hazillashishni, quvnoq va jahldor bo'lishni bilishi kerak. U

FAN, TA'LIM, TEKNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI NOMLI III ILMIY ONLAYN KONFERENSIYA

o‘zini shunday tutishi kerakki, uning har bir qarashi, har bir xatti - harakati tarbiyalasin”.

Shundan ko‘rinib turibdiki, bola tarbiyasiga asosan oilada ota-onalarda tarbiyachi mas’uldir. Shuning uchun bizga malakali, har tomonlama bilimli, ijodkor, o‘z sohasining yetuk mutaxassisini bo‘lmish yetuk kadrlar kerak. Endi MTTlarda bolaga qanday tarbiya berib boriladi? Bolaga tarbiya berishda tarbiyachi qanday yo‘l tutishi lozim? degan savollar tug‘iladi. Albatta, bola beg‘ubor olamda yashaydi, nimani ko‘rsa unga intiladi. U yosh nihol kabitidir. Uni qanday parvarish qilsangiz, shunday o‘sadi. Bola atrofdagi olam bilan yashaydi. Nima to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini bilmaydi. Unga to‘g‘ri tarbiya berib borish, albatta, ota-onalarda, tarbiyachi va ustozlarning qo‘lidadir. Aynan MTTlarda bola tarbiyasi asosiy o‘rin egallaydi. Chunki bola hayotining asosiy qismini ta’lim va tarbiya tashkil qiladi.

Ta’lim bu - ta’lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko‘nikmalar berishga, shuningdek , ularning umumta’lim va kasbiy bilim, malaka hamda ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayon hisoblanadi.

Tarbiya esa – insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo‘lgan xususiyatlarga ega bo‘lishini ta’minalash yo‘lida ko‘rildigan chora-tadbirlar yig‘indisi hisoblandi. Bola tarbiyasi jamiyatda asosiy o‘rin egallaydi. Prezidentimiz aytganlaridek, maktabgacha ta’lim turi bolani mактабга таъвудлилар билан бирга, уни sog‘лом bo‘lib o‘sishini ta’minalaydi. Muntazam ta’lim olishga tayyorlaydi. Unda o‘qishga intilish hissini uyg‘otadi. Shundan ko‘rinib turibdiki, maktabgacha ta’lim bola hayotining ajralmas qismidir. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining davlat o‘quv dasturi bo‘lmish “Ilk qadam” – dasturi Maktabgacha ta’lim Vazirligining 2018-yil 7-iyul 4-sonli hay’at yig‘ilishi qarori bilan tasdiqlangan bo‘lib, 7bobdan iborat. Unda MTTlarning maqsad va vazifalari bola rivojlanishining kompetensiyaviy yondashuvi, bolaning rivojlanish sohalari bo‘yicha yutuqlari, tamoyillari aytib o‘tilgan. Hozirgi kunda MTTlarda faoliyatlar “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi asosida olib boriladi. Bu o‘rinda shuni aytish joizki, bolalar faoliyatida asosiy o‘rinni o‘yin tashkil etadi. Ya’ni har bir tarbiyachi faoliyatlarni o‘yin orqali tashkil etib, bolaga ta’lim – tarbiyaviy jarayonni tashkil etsa, bola mavzuni tez anglab oladi, hamda unda jamoa bo‘lib ishlash, tengdoshlari bilan fikr almashish va ular bilan do‘stona munosabatda bo‘lish tuyg‘ulari shakllanadi. Bu jarayonda tarbiyachining mahorati asosiy o‘rin egallaydi. Chunki mashg‘ulot paytida tarbiyachi bolaning nutqiga, xarakteriga, kayfiyatiga qarab bolalarga faoliyat

FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI NOMLI III ILMUY ONLAYN KONFERENSIYA

materiallarini bo‘lib berishi lozim. Bundan tashqari tarbiyachi bolalarni tabiat bilan tanishtirish, tabiat bilan hamkorlikda ishlash, mehnat tarbiyasiga o‘rgatish va boshqa bir qator jihatlarga e’tibor qaratishi lozim.

“Ilk qadam“ davlat o‘quv dasturida bolaning komil shaxs sifatida o‘sib, kamol topishi, oila va MTTlarning hamkorlikda ish olib borilishi aytib o‘tilgan. Bundan tashqari “Ilk qadam“ o‘quv dasturining 3-bobida bola rivojlanishida kompetensiyaviy yondashuv keltirilgan. Ya’ni kompetensiya bu - bolaning bilim ko‘nikma, malaka va qadriyatlar majmuidir. MTTlarda bolalar quyidagi kompetensiyalar bo‘yicha shakllantiriladi:

☆ *Kommunikativ kompetensiya* bu – muloqot vositalaridan turli vaziyatlarda foydalana bilish ko‘nikmasi.

☆ *O‘yin kompetensiyasi* bu - bolaning o‘yin jarayoni va uni tashkil qilishda bilim va ko‘nikmalardan ijodiy foydalanishi. O‘quv tarbiyaviy faoliyat uchun asos hisoblanadi.

☆ *Ijtimoiy kompetensiya* bu- hayotiy vaziyatlarda kattalar va tengdoshlar bilan muloqotda axloq qoidalari va me’yorlariga rioya qilgan holda o’zini tutish mahorati

☆ *Bilish kompetensiyasi* bu- atrofdagi olamni ongli ravishda idrok qilish va olingan bilim, ko‘nikma malaka va qadriyatlardan o‘quv va amaliy vazifalarni hal qilish uchun foydalanish ko‘nikmasi. Shuning uchun ham bolaning kompetensiyalarini rivojlantirish lozim.

Tarbiyachining nutqiy qobiliyati madaniy, kasbiy pedagoglar talablari asosida shakllanib boradi. Ya’ni tarbiyachi doim izlanuvchan tadqiqotchi bo‘lishi lozim. Konfutsiy aytganidek,”Eskini o‘zlashtirgan va yangini tushunishga qodir insongina tarbiyachi bo‘la oladi”.

Endilikda maktabgacha ta’limda bo‘layotgan o‘zgarishlarga to‘xtaladigan bo‘lsak, 6yoshli bolalarni maktabga majburiy tayyorlash tizimi yo‘lga qo‘yildi. 2025-yilda 6 yoshli bolalarning 82 %i (560ming nafar)maktabga bepul tayyorlovga jalb etiladi. Bundan tashqari, uzoq qishloqlarda maktabgacha ta’limni uyda berish modeli yo‘lga qo‘yildi. MTTlarda asosan chet el tajribasi asosida ta’lim-tarbiya berilmoqda. Asosan hozirgi kunda Janubiy Koreya ta’lim tizimi yetakchi o’rinni egallab kelmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining ta’lim tarbiyaga qaratilgan “Ta’lim to’g’risidagi qonun”ining 9-moddasi umumiyl o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim haqidadir. Biz bilamizki, o‘rta ta’limning ilk bosqichi boshlang‘ich ta’lim sanaladi. Boshlang‘ich ta’lim- ta’lim oluvchilarda umumiyl o‘rta ta’limni davom

FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI NOMLI III ILMIY ONLAYN KONFERENSIYA

ettirish uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim, malaka va ko'nikmalar asoslarini shakllantirishga qaratilgan. Ya'ni, bola bog'chani yakunlab, 7 yoshdan maktab ostonasiga qadam qo'yadi. Uni endi tarbiyachi emas, balki ustoz-murabbiy bag'riga oladi. Aslini olganda, MTT larda bola 70% bilimga ega bo'ladi. Shuning uchun maktabda umuman qiyalmay ta'lim oladi. Albatta, bola uchun MTTda ta'lim olish qanchalik muhim bo'lsa, maktabda, ayniqsa, boshlang'ich ta'limda ham xuddi shunday ahamiyat kasb etadi. Albatta, bolaga yoshlikdan ta'lim berib borilsa, unda o'qishga qiziqish, yoshlikdan kasb tanlash hissi uyg'onadi. Yurtimizda ustoz-murabbiylar doim ulug'lanadi. Darhaqiqat, "Biz ustozni otaday ulug' deb bilgan, doimo ardoqlagan ma'rifatparvar xalqning vakillarimiz", - deydi Prezidentimiz.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "Maktablarda o'qitish metodikasi o'zgarmasa ta'lim sifati ham, mazmuni ham, muhit ham o'zgarmaydi". Bundan tashqari, davlat rahbarimiz, avvalo, maktablarda o'quv va darslar sonini qayta ko'rib chiqish, o'quvchilarni faqat yodlashga emas, balki fikrlashga chorlaydigan metodika yaratish zarurligini ta'kidladi. Maktablar bilim bilan birga tarbiya, ma'naviyat maskanidir. Chunki unda ta'lim beruvchi ustoz-murabbiylarimizning xizmati kattadir. Shu o'rinda "Ustoz-murabbiy qanday bilimga, qanday salohiyatga ega bo'lishi kerak? - degan savol tug'iladi. Italian yozuvchisi J.Rodari shunday deydi: "O'qituvchiga xos bo'lgan muhim sifatlardan biri har doim biror narsani o'ylab topishga intilish, o'quvchilarni ham shunga undash. Bolalarni o'ylashga o'rgatish uchun ularda o'ylab topish ko'nikmasini shakllantirish kerak". Albatta, o'qituvchi faoliyatida eng muhim narsa bu uning nutqi va o'quvchilar bilan muloqotidir . Boshlang'ich ta'lim asosan 1-4-sinflarni qamrab oladigan bo'lsa, mana shu davr bolaning bilimga chanqoqlik davri bo'lib, bu vaqt oralig'ida bolaga yetarlicha e'tibor berilmasa, u yuqori sinflarga o'tish jarayonida bilimlarni o'zlashtirishga qiynaladi. Ya'ni fikrlash layoqati, bilimining yetarlicha bo'lmasligi tufayli jamiyatda o'z o'rmini topishga qiynaladi.

Yurtimiz jadal sur'atlarda rivojlanib borayotgan bu davrda, uning gullabyashnashi, rivojlanishi, farovonligi uchun o'z kasbining mohir mutaxassisini bo'lmish, yosh kadrlarimizning o'rni muhim ahamiyatga egadir. Shunday ekan, maktabgacha va boshlang'ich ta'lim orasidagi ko'priki mustahkamroq qilib qurishimiz, ta'limning sifat samaradorligiga innovatsion yo'llar orqali erishishimiz lozim. Buning uchun pedagoglardan juda katta mas'uliyat talab etiladi.

**FAN, TA'LIM, TEKNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI
NOMLI III ILMIY ONLAYN KONFERENSIYA**

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 1.V. Grosheva, L.G.Yevstafeva, D.T.Maxmudova, Sh.B.Nabixanova, S.V.Pak, G.E.Djanpeisova "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi T: 2018. 1-81-b;
2. F.Qodirova, SH.Toshpo'latova, M.A'zamova. "Maktabgacha pedagogika". -T., "Ma'naviyat". 2019
3. Sh.A.Sodiqova "Maktabgacha pedagogika". "Tafakkur sarchashmalari" T.: 2013
4. Numondjonovna D. G. The use of interactive methods in forming the ecological worldview of preschool children //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – T. 11.
5. Davranova G. COLLABORATION BETWEEN KINDERGARTEN AND FAMILY //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.
6. Numondjonovna D. G. The importance of using multimedia to expand children's worldwide during the activities //Asian Journal Of Multidimensional Research. – 2021. – Т. 10. – №. 7. – С. 28-31.
7. Numondjonovna D. G. et al. The Importance of Aesthetic Education in Comprehensive Education of Preschool Children //International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 54-57.
8. Davranova Gulbahor N. Advantages of Using Modern Information Technologies in Teaching Russian Language for Primary School Students //AMERICAN JOURNAL OF SOCIAL AND HUMANITARIAN RESEARCH. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 333-338